

2023–yilning yanvar–sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023–yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 9159,1 mlrd. so‘mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 8680,3 mlrd. so‘mni (104,4 %), o‘rmon xo‘jaligi – 355,8 mlrd. so‘mni (102,1 %), baliqchilik xo‘jaligi – 123,0 mlrd. so‘mni (113,2 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.



9159,1

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



8680,3

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



355,8

O‘rmon xo‘jaligi

03




123,0

Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)



2023–yilning yanvar–sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,8 % – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,9 % – o‘rmon xo‘jaligi, 1,3 % – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (1699,4 mlrd. so‘m) va Beruniy (1114,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo‘ynoq tumani (112,3 mlrd. so‘m) va Nukus shahrini (59,7 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (104,4 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Qo‘ng‘irot (110,4 %), Nukus (108,9 %), Xo‘jayli (107,5 %), Kegeyli (107,3 %) va Bo‘zatov (106,0 %) tumanlarida kuzatildi, Mo‘ynoq (102,3 %), Shumanay (100,1 %) tumanlarida va Nukus (101,1 %) shahrida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘shish sur‘ati




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023–yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 8618,4 mlrd. so‘mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 3499,6 mlrd. so‘mni (107,1 %), chorvachilik mahsulotlari – 5118,8 mlrd. so‘mni (102,4 %) tashkil qildi.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

40,6 %
Dehqonchilik mahsulotlari



59,4 %
Chorvachilik mahsulotlari

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 67,9 % – dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 25,7 % – fermer xo'jaliklariga, 6,4 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2023-yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qonliko‘l (41,0 %) va Taxiyatosh tumanlarida (34,9 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Nukus (94,3 %) shaharda, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Taxiyatosh (10,4 %) tumanida qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (4,6 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qonliko‘l tumanida (52,1 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Bo‘zatov tumanida (1,9 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2023–yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3499,6 mlrd. so‘mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 40,6 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming t.



O‘shish sur‘ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 186,1 ming t. donli ekinlar (2022–yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil qildi) ishlab chiqarildi. Donli ekinlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 76,5 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston
Respublikasi bo'yicha
donli ekinlar
yetishtirish hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 201,7 ming tonna sabzavotlar (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 0,6 % ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **sabzavotlar**
yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 56,5 ming t. kartoshka (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 1,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 74,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **kartoshka**
yetishtirish hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 127,6 ming t. poliz (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 1,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 50,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **poliz**
yetishtirish hajmi, tonna




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 40,4 ming t. meva va rezavorlar (2022–yilning yanvar–sentabrga nisbatan 5,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 58,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **meva va rezavorlar**
yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 5540 tonna uzum (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 94,1 %) ishlab chiqarildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **uzum**
yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5118,9 mlrd. so‘mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 59,4 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 81,6 ming t. go‘sh (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,0 % ga ko‘p), 255,8 ming t. sut (3,8 % ga ko‘p), 257,6 mln. dona tuxum (1,3 % ga ko‘p), 83,8 ming dona qorako‘l teri (100,0 %) ishlab chiqarildi va 5818,6 tonna baliq (102,0 %) ovlandi.

Go‘sh t (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O‘shish sur‘ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 81,6 ming t. go‘sh t (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sh t ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sh t ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **go'sht (tirik vaznda)**
yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 255,8 ming t. sut (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 3,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 89,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O‘shish sur‘ati, % da



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 257,6 mln. dona tuxum (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 1,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,4 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha olingan **tuxum**
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar




2023–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 5818,6 t. (2022–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 102,0 %) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 41,8 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha ovlangan **baliq**
hajmi, tonna




Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2023–yining 1–oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 14,1 % fermer xo‘jaliklariga, 83,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 25,5 % fermer xo‘jaliklariga, 71,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,0 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 9,3 % fermer xo‘jaliklariga, 83,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 7,7 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1217,5 ming taga yetdi. 2022–yilning 1–oktabr holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 19,0 ming taga (1,6 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, *ming bosh*




2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 355,7 ming taga yetdi. 2022–yilning 1–oktabr holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 5,0 ming taga (1,4 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,7 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **sigirlarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1236,7 ming taga yetdi. 2022–yilning 1–oktabr holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 30,1 ming taga (2,5 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 83,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **qo‘y va echkilarning**
umumiy bosh soni,
*ming bosh***




2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 27 986 taga yetdi. 2022–yilning 1–oktabr holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 425 taga (1,5 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sinh sur‘ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 71,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, bosh




2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni – 5 034,4 ming taga yetdi. 2022–yilning 1–oktabr holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 56,3 ming taga (1,1 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh




O‘sish sur‘ati, % da




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 83,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **parrandalarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 61-222-76-07